

“MAQSADSIZ URUSH” NING HAQIQATLARI

Xumoroy Qobil qizi Shomurodova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

O`zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs magistranti

x.shomurodova@dtpi.uz<https://orcid.org/0009-0001-7382-7215>

Annotatsiya . Insoniyat yaralgandan buyon juda ko`p katta-kichik urushlarni boshdan kechirdi. Hech bir davrda urush kishilik jamiyatiga ta`sir etmay qolmagan . U hayotning har bir sohasida o`z izini , albatta, qoldiradi. Ayniqsa, adabiyotda urushlardan “ilhomlanib” yozilgan asarlar talaygina . Ushbu maqolada mamlakatimiz Sobiq Ittifoq tarkibida bo`lgan paytda bo`lib o`tgan Afg`on urushida qatnashgan yozuvchi, shoirimiz Qo`chqor Norqobilning “Daryo ortidagi yig`i” , “Kulib tur, azizim” , “O`n sakkizga kirmagan men bor” asarlari tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida urush dahshatini ochib beruvchi vositalar hamda peyzaj- tabiat tasviri keltirilgan o`rinlarga alohida to`xtalib o`tiladi. Irrealizm atamasiga izoh berib, yozuvchining poetic mahorati ta`kidlangan.

Kalit so`zlar: Qissa, asar, realizm, irrealizm, peyzaj, tasvir, tahlil.

Jahon va o`zbek adabiyotida urush mavzusida yozilgan asarlar talaygina. Rus adabiyotida Tolstoy, Yevropa adabiyotida Remark, Nobel mukofoti laureate Ernst Hemingueylarning asarlari mashhur. O`zbek adabiyotida esa Shuhrat, Rahmat Fayziy, O`tkir Hoshimov asarlarini bilamiz. XX asrda bo`lib o`tgan urushlar insoniyat hayotiga qanchalik ta`sir o`tkazgan bo`lsa, badiiy adabiyotda ham shunchalik iz qoldirgan. Xalqimiz qatnashgan Sobiq Sovet Ittifoqining “maqsadsiz urush” nomini olgan afg`on urushi ham o`z ta`sirini o`tkazmay qolmadi, albatta.. O`tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani aynan afg`on urushi va uning oqibatlari haqidagi asar . Ammo bu urush haqida yozgan yozuvchimiz Qochqor Norqobil ijodi alohida e`tirofga loyiq deb o`ylayman. Chunki Qo`chqor Norqobil Afg`on urushining bevosita ishtirokchisi edi. Asli shoir bo`lgan ijodkor urushdan qaytgach ushbu urush haqida yozishi kerakligini angelaydi. Adib birin- ketin “Daryo ortidagi yig`i” , “Kulib tur , azizim”, “O`n sakkizga kirmagan men bor”, “Qordagi lola” qissalarini e`lon qildi. Qo`chqor Norqobil asarlarining boshqa asarlardan farqi shundaki, yozuvchi o`z ko`zi bilan ko`rgan voqealarni yozadi, o`zi his qilgan tuyg`ularni ro`y rost tasvirlashga intiladi. Adibning “Quyoshni kim uyg`otadi?” to`plami ning so`zboshisida Shukur Xolmirzayev shunday yozadi: “Qo`chqorning shoirona nasrida reallik bilan noreallik ko`pincha omixta bo`lib ketadiki, bunga erishish juda qiyin-e: birinchidan, bunday irreaklistik nasr tajribasi bizda yo`q. Ikkinchidan, buy o`l man-man degan adibni ham uloqtirib, o`tlatib ketadi, demak, asar maqsadidan kelib chiqadigan chegaragina uni

tutib turishi mumkin. Endi, asarning maqsadi-urushning inson ruhidagi o`zgartirishlarini, ruhdagi iztirobli to`lg`oqlarni tasvirlash va oqibat uning fojia natijasini ko`rsatishdan iborat bo`lsa, hali yosh, dunyoviy adabiyotning bu boradagi tajribalari bilan endi tanisha boshlagan va shu asno o`zini kashf etayotgan yozuvchiga naqadar og`irlik tushadi”.¹

Yozuvchining o`zi “Daryo ortidagi yig`i “ qissasining muqaddimasida shunday deydi: “Men otamni yig`latgan, onamni keksaytirgan urush haqida yozmasligim nechog`lik og`irlikini his qilgan holda bu ishga qo`l urdim”. Bu vazifani yozuvchi uddaladi ham. Asar bilan tanishar ekansiz o`sha davr muhiti, siyosati, ko`zboyamachiliklariga nisbatan nafratni tuyasiz. Urushayotgan ammo nima uchun jang qilayotganini o`zi ham anglamayotgan, qurbon bo`layotgan yigitlarga o`z yaqiningizdek joningiz achiydi. Zero adabiyotning o`ziga xosligi ham shunda. Yozuvchi urushga bo`lgan munosabatini askar Kuzmenko tilidan o`quvchiga yetkazadi:” ...-Yura, o`ylab ko`r-a, o`z uyida to`polon qilgan bolakayni yeti yot begona bo`la turib sen do`pposlayversang, ota-onasining qahri kelmaydimi? Ming qilsa ham jigarbandi. O`z pushtikamaridan yaralgan arzandasini sensiz ham o`zlari ta`zirini berish qo`lida kelmasa-da, bir amallab insofga chaqirar”. Qissada hech bir qahramon to`qima emas, hatto ismlari hamo`zgarishsiz kiritilgan. Bosh qahramon(yozuvchining o`zi) ideallikdan yiroq iloji boricha real tasvirlashga bo`rttirishlarsiz, qo`shib – chatishlarsiz berishga harakat qilgan ijodkor. Ur- to`polonlar bilan birga tabiat tasviri – peyzaj ham unutilmagan, albatta. Insonlarning ayovsiz qirg`ini va tabiat tasviri bir-biriga qarama –qarshidek taassurot qoldiradi: “Afg`on bahori ham o`zimiznikidek bo`ladi. Qism atrofidagi o`rikzor oq gulag burkangan...tiniq kunlar boshlandi. Yaqinimizdagi qishloqdan bolalarning qiy-chuvi ehitlar, havoni to`ldirib varraklar uchardi. Go`yo bu yerlarda urush bo`lmaganday...”²

Qissada hayot va o`lim orasidagi masofa bir qadam ham emas, masofa yo`qoladi go`yo. Bitta qaltis harakat, bitta tasodifiy o`q va hayot tugashi mumkin. Aynan o`sha daqiqalarda inson xayoli, ruhiy holati haqqoniy tasvirlangan:”...Xayolimga kelgan fikrdan qo`l oyog`im bo`shashib ketdi.men o`lishni istamayman!...otamning suyangani- men. Ey xudo, ishqilib shu yerlarda o`lib ketmayin...” “Antique world” akademiyasi dotsenti Orifjon Odilov “Urush haqiqati” maqolasida shunday yozadi:”Urush mavzusida bitilgan asarlarda shaxs ruhiyati tasviri orqali insonning asl o`zligi namoyon bo`lishi kuzatiladi”.³ Asar so`nggida yurtiga qaytgan askar his tuyg`ularni o`qir ekansiz etingiz beixtiyor jimirlab ketadi, ichingizda cheksiz shukrona keltirasiz bugungi kunlar uchun.”-Aziz jangchilar! Birodarlar! Siz uchayotgan havo

¹ Norqobil Qo`chqor, Quyoshni kim uyg`otadi?:Kissalar, hikoyalar.-T.:”Sharq”,2007._384-b. 5-bet.

² Norqobil Qo`chqor, Quyoshni kim uyg`otadi?:Kissalar, hikoyalar.-T.:”Sharq”,2007._384-b. 15-bet

³ Orifjon Odilov, “Antique world” akademiyasi dotsenti. Iyul 26,2008.

kemasi SSSR chegarasini kesib o`tdi. Tabriklaymiz!!! Men boshqa so`zlarni eshitmadim. Bu mening hayotimning hech bir shodiyona va baxt bilan almashtirib bo`lmaydigan eng quvonchli daqiqalari edi...”

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, urushlar bo`lib o`taveradi, buni biz oddiygina qilib tarixdan ham o`qib olishimiz mumkin. Ammo badiiy asar ichiga joylangan urush haqiqatlarini, jangchilar kechinma-yu taqdirlarini hech birimiz shunchaki o`qiy olmaymiz, u bizning qalbimizni uyg`oqlikka chorlaydi, bunday mudhish xatolarni bugun va kelajakda takrorlashga hech kimning hech qanaqasiga haqqi yo`q ekanligini anglatadi. Inson hayotining naqadar ahamiyatli ekanini tushuntiradi. Aslida adabiyotning eng yuksak vazifasi ham shu nazarimda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Norqobil Qo`chqor, Quyoshni kim uyg`otadi?:Kissalar, hikoyalar.- T.:”Sharq”,2007._384-b. 5-bet.
2. Orifjon Odilov, “Antique world” akademiyasi dotsenti. Iyul 26,2008.
3. Language and literature teaching 2014-yil 8-son www.tilvaadabiyot.uz
4. Oripova Gulnoza Murodilovna , O`zbek nasrida “yo`qotilgan avlod” muammosi. International scientific journal of biruni vol.1, issue2 oct.2022.